

## RAMZLAR TILI VA FRANS KAFKA IJODIYOTI UYG'UNLIGI

Maftunaxon Mannapova,

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785422>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy ramz va til uyg'unligi Frans Kafka ijodi, Nazar Eshonqul ijodida ta'siri, uni germenevitik jihatdan talqin etish modusi haqida so'z yuritildi. Xususan, o'zbek adibining Kafka haqidagi qarashlari-yu, o'z asarlaridagi mutanosib hijatlarga mantiqiy urg'u berildi, ilmiy asoslandi.

**Kalit so'z:** ramz, metafora, uslub, ta'sir, poetika, absurd, falsafa, etika.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается гармония художественного символа и языка, творчество Франца Кафки, влияние творчества Назара Эшонкула, модус его герменевтической интерпретации. В частности, логический акцент был сделан на взглядах узбекского писателя на Кафку и пропорциональных потребностях в его произведениях, которые были научно обоснованы.

**Ключевое слово:** символ, метафора, стиль, влияние, поэтика, абсурд, философия, этика.

**Abstract.** This article discusses the harmony of artistic symbolism and language, the influence of Franz Kafka's work, Nazar Eshankul's work, and the mode of hermeneutic interpretation. In particular, the views of the Uzbek writer on Kafka and the proportional needs in his works were logically emphasized and scientifically substantiated.

**Keywords:** symbol, metaphor, style, influence, poetics, absurdity, philosophy, ethics.

**Kirish.** Jahon falsafasida biron narsa yo'qi, uning oqibatini sababidan boshlab izlamasa. Chunki sabab oqibatni anglash orqali natijaga yetaklaydi. Ulkan san'atkorlar hamisha o'z hisiyotlarini og'ir bosiqlik, vazminlik, aql bilan yuzaga chiqaradilar. Chunonchi mumtoz adiblarimiz ijodiga yaqinlashganimizda haybatli tog' qarshisida o'zimizni yupun va hech narsani bilmaydigandek his etamiz. Bu hayotiy haqiqat. Misol uchun Alisher Navoiy ijodiyoti – ma'nolar, ramzlar, metaforalar qo'rg'onidir. Chunki metaforalar insonga har tomonlama sirlarni, bilimlarni, ishoralarni juda katta mantiq bag'rida yashiringanligidan ogoh etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tasavvuf olimi Najmiddin Komilov biz olib borayotgan tadqiqotimizning mohiyatiga kirib borishga yetaklovchi quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: "Ibn Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli hazrati Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alahi vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Payg'ambarimiz xalq va Haq muqobi-lida turardilar va orada vosita edilar. Shunday bo'lgach, hamma odamlarni ham va hatto anbiyo va avliyolarni, donishmandlarni komil inson deb atash joiz emas. Va agar Payg'ambardan o'zga zotlarga nisbatan bu sifat aytilar ekan, buni shartli ta'rif yoinki shu ulug' martabaga hurmat-ehtirov belgisi sifatida qabul qilish kerak. Sayyid Abdulkarim Geloniy fikriga ko'ra, har bir inson ikkinchisining o'rnini bosadigan nusxadir va bir-birining qarshisida turgan ko'zgu kabidir. Bitta odamdagi xislat va sifat ikkinchisida aks etib turadi. Ammo farqi shundaki, bu akslanish ba'zilarida fe'l-harakat bo'yicha bo'lsa, ba'zilarida esa quvva,

ya'ni xislat-xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. Demak, iste'dod va qobiliyat, xususiyat va sifatiga ko'ra, bir-biriga o'xshash odamlar behad ko'p. Bularni umumiy nom bilan xalq, odamlar, kishilar deb qo'ya qolamiz". Shuni unutmaslik lozimki, narsalarning qiymati qiyoslarda, solishtirishlarda bilinadi deydi, Mavlono Rumi. Frans Kafkadagi qahramonlari izlayotgan ma'no, mantiq ham ana shu bo'lak hamda qism orasidagi munosabatdir. Demak, qiyoslar, odamning mavqeini, bir-biriga ta'sir doirasini anglash uchun zinapoyadir. Bularni qaysi yo'l bilan atash joiz. Bu tahlilshunosning qurbi idrokidan kelib chiqiladigan masaladir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot germenevtik va qiyosiy-adabiy yondashuv asosida olib borildi. Franz Kafka hamda Nazar Eshonqul asarlaridagi ramziy-majoziy qatlamlar matnning ichki semantik tuzilishi va badiiy tafakkur uyg'unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, interpretativ va kontekstual tahlil metodlari yordamida ramz, metafora hamda absurd poetikasining o'zaro ta'sir mexanizmlari ochib berildi.

**Tahlillar va natijalar.** Frans Kafka ana shunday og'riqlarni boshidan o'tkazgan muztar inson, mazlum odamlardan biri. Bu haqda kafkashunos tarjimon Vafo Fayzulloh shunday e'tirof etadi: "Mana qo'lingizda "Qal'a" romani. Butunlay yangi ob'yekt. Holbuki, uning asosiy qahramoni nomining o'ziyiq adibning "Jarayon" romaniga uyqash. Xatti-harakatlar, surishturuv, ma'naviy borliqdagi sir va voqeylik, ifodasi yaqin, lekin betakror. Dastavval bu mutolaa kishini toliqtirishi mumkin. Lekin o'ziga tortib turishi undan ham ortiq. Zero, sahifalar bo'ylab oldinga intilishingiz sari yangi bir dunyoga, siz shu paytgacha duch kelmagan dunyolarga kirib boraverasiz. Va siz kutgan, guvohi bo'lib yurganingizga qaramay, ilg'anmagan jamiyat tizimlarini, inson ko'ngli g'alayonlarini badiiy did va adabiy savodingiz qadar, dunyoqarash va e'tiqodingiz miqyosida topasiz". Tarjimon bndan oldin "Jarayon" romani hamda qator hikoyalarini rus tilidan tarjima qilgandi. Ilk kitob holida o'zbek o'quvchisiga "Qal'a" romani taqdim qilindi. Tarjimon o'z Kafkasini o'zbek tilida kashf qiladi. Shoir qilgan tarjima esa, Kafkaga har birimizni, lirik sezimlar bilan oshufta, oshino qilishga sabab bo'ladi. Roman yozilganiga 105 yil to'ldi. Tasavvur qilamizki, asardagi K.ismli qahramon (bosh personaj) taqdir chiziqlarida xuddi bugunga olib keluvchi hokimiyat, undagi illatlar, qasrlardagi aldamchilik, oddiy odamning haqi-hurmati, insoniylik qanday mezon ekanligiga ishora, badiiy ramz bilan kirib borganligining shohidi bo'lamiz.

Romanning o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi haqida so'z borganda munaqid va yozuvchi Nazar Eshonqulni qanday o'ziga maftun eta oldi? Bunday savolga javob topish, XX asrdagi modernizm va postmodernizm oralig'ida vujudga kelgan qator asarlarni sarhisob qilish ishonchni oqlaydi. Sababki, Kafka va uning tizimli avlodi mistika yoki fantaziya bilan emas, mif va uning zamonavizda qanday rol tutishini tushunib yetganligida seziladi. "Qal'a" romanida quyidagi matn mulohazalarimizni germenevtik yo'sinda anglashga imkon beradi: "K. yarim kechada manzilga yetib bordi. Qishloq qalin qorga

burkangan edi. qal'aning qir uchlariniyam ko'rib bo'lmasdi. Quyuq tuman va zulumat qo'ynida biron-bir chiroqcha-da yilt etib, ulkan al'adan darak bermasdi. K. qishloq tomon boradigan yo'l ustidagi taxtapulda uzoq turib, biyday bo'shliqqa termilib qoldi.

Keyin esa tunagani joy topish uchun yo'lga tushdi. Harqalay, karvonsaroydagilar uxlashmagan, biroq ijaraga qo'yishmasdi. Bu yerning sohibi shu kech pallada mehmonga balo bormi degandek, avvaliga jini qo'zidi, oxiri amal-taql bir to'shak topdirib, K.ga umumiy xonada tunashiga rozi bo'ldi. bir necha dehqon pivoxo'rlik qilib o'tirishar, K.ning esa hech kim bilan gurunglashib o'tirishga tobi-toqati yo'q, pechka ustiga uzala tushdi. Issiqqina xona jonning huzuri, qolaversa, dehqonlar ham g'ala-g'ovur ko'tarayotgani yo'q, alqissa K.horg'in nigohda ularga bir qur qaragan bo'ldi-yu, qotdi-qoldi".

Frans Kafkaning "Qal'a" romani muqaddimasi "Manzilga yetmoq" deb nomlanib, voqelar silsilasi ana shu zaylda boshlanadi. K.ning manzilga yetishi juda og'ir sinovlar bilan boshlanib, uni o'qiganingizda qaysi bir davr odamlari, jamiyat, tuzum, siyosiy maydonda ro'y berishini tasavvur ham qilish mushkullashadi. K.ning tabiatidagi to'g'riso'zlik va halollik Qal'a va karvonsaroydagi odamlarni taajjubga soladiki, dehqonlar, oddiy ishchilar, turli xil kasb egalari, karvonsaroy xodimlari (mehmonxona) uni o'rab olishadi. Savol tug'iladi. K.o'zi o'sha payt Qal'a ichidamidi yoki Karvonsaroydagi Qal'a ichidamidi? Bu zukko o'quvchini ikkilantirib qo'yishi tabiiy. Sababi K.ning tabiatida – odamlarga nisbatan hurmat, kamtarlik ufurib turadi. Roviyy nutqi bilan K.ning sifati, xarakteri tasvirlanar ekan, har bir lavhada voqelar bir-biriga murakkab tarzda o'rin almashib turadi. Dehqonlar mehmonxonada nima qiladi? Bir qarashda telefon qilib, K.ni mazasini qochirishmoqchi ham bo'lishadi. Ammo, tong otishini, Vestvest grafligining rahbariyatini chaqirishni ep ko'rishmaydi. Ayni shu yerda gap nima haqida ketayotganligini Frans Kafka nimaga mantiqiy urg'u berayotganligini tushunib yetish mumkin.

Prof. Q.Yo'ldoshev qaydicha: "Kafkaning asarlari sinchiklab o'qilsa, yozuvchining tush ko'rish qonuniyatiga muvofiq ijod qilishni sezish mumkin. Ya'ni tush hech qanday tartibga, qonuniyatga, mantiqiy asosga tayanmagani kabi Kafkaning asarlari hech qanday qoidagi rioya qilinmagan holda yaratiladi. Adib uchun o'tmish ham, kelajak ham mavjud emas, uning uchun birgina bugun, hozir bor xolos. Shuning uchun ham u qahramonlarining ayni holatga tushib qolganini izohlab, asoslab o'tirmaydi. Kafkaning asarlarida boshqa adiblarniki singari chinakam boshlanish ham, chinakam tushallanish ham yo'q. Kafkaning asarlarida nimaning nima uchun sodir bo'lganini izohlash emas, uning qanday yuz berganini tasvirlash muhim hisoblanadi".

Keltirilgan lavhada adib shaxsiyatiga daxldor uchta jihat yanada mulohazalarimizni aniqlab olishga imkon beradi.

**Birinchi**dan – Frans Kafka o'ziga to'q oilada kamol topgani bilan, otasining o'ta qattiqo'lligida, erkidan ajralgandek, bo'g'ilgandek his qilardi. Shu boisdan ham, Kafka

o‘rtoqlari bilan do‘st tutinib, ochiq gaplashish xususiyati kam bo‘lgan. Yolg‘izlik yozuvchi uchun katta ozodlik bo‘lib tuyuladi.

**Ikkinchidan** – o‘z hayotini rang-barang bo‘yoqlarda, obrazlarda tasvirlash “xobbi”, yozuvchilikka davogarlik bo‘lib ko‘rinmasdi. U yozganlarini do‘st Maks Brodga o‘qitar, bu asarlarni nashr qilish mumkinmasligini ko‘p uqtirardi.

**Uchinchidan** – Frans Kafka otasi bilan chiqisha olmasligi mumkin, uni onasidan kam yaxshi ko‘rmas, o‘zini ular oldida juda mas‘uliyatli his qilardi, topgan ozroq maoshidan ularni xushnud qilishni katta burch deb sanardi. Buni “Otamga maktub” esesida ham ko‘rishimiz mumkin.

Mana shu yo‘sinda Frans Kafka va Nazar Eshonqul asarlarini germenevtik talqin va tahlil etib, ramziy-majoziy ishoralarni aniqlab olish imkonini beradi. Demak, har qanday tasodif Kafka uchun g‘ayritabiiy hodisa bo‘lib tuyuladi. Inson shaxsiga o‘z hurmati va muhabbatini ochiq-oshkor bayon etmasa ham Kafka ichkarida, botinida yashirin tarzda muhabbat bilan yashashni oliy qadriyat sifatida ko‘rgan. Germenevtika sohasida ilmiy izlanish olib borgan M.Tojiboyev yozishicha: “Adabiyotshunoslik tushunishning epifenomenlarini ijtimoiy holat sifatida olib qaraydi. Germenevtika esa, tushunish jarayoni va uni optimallashtirish holatlarini tahlil qilsa, lingvistika matnni tushunishni tashkil qiladigan fragmentlarning shakl xususiyatlarini o‘rganadi. Shu sababli adabiyotshunoslikning tadqiqot metodi matn “parcha”sini o‘rganishni talab qiladi. Bunday parcha roman janridagi asardan kichik bo‘lmasligi kerak. Lingvistika metodikasi esa, mana “parcha”dagi badiiy-tasviriy vositalarning tabiatini ochib berishga qaratilgan bo‘ladi”, – degan xulosaga keladi. Baayni holatda parcha (qism), butunni sinoatini ochib berish, obrazlarning ichki olamiga kirib borish ham muhim ishlardan biridir. Ya‘ni talqinchi talqin etarkan, matndagi nutq bo‘laklarini, jumlar, lirizm, umuman, hamma mantiqiy urg‘uni his etish darajasida yondosh sohalarni ham teran o‘zlashtirishi muhim. shundagina G‘arbu Sharq adabiyotshunosligidagi, estetikasidagi, falsafa va mantiq ilmidagi tafsir ilmini anglash lozim bo‘ladi.

Frans Kafkaning o‘zbek adabiyotida eng ko‘p ta‘sir qilgan yozuvchi Nazar Eshonquldir. Yozuvchi o‘z tushunchalarini ifodalar ekan, “Ochilmagan eshik”, “Muolaja”, “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Bahovuddinning iti”, “Sibizg‘a volasi” hikoyalarida, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” qissalarida, “Ta‘qiq mevasi”, “Go‘ro‘g‘li”, “Giryon” romanlarida yangicha ifodaning quyuqlashgan formulasini, shaklini, ramzlarini uchratishimiz tayin. Kafka va Nazar Eshonqul ikki davrning yozuvchisi. Ular yashagan vaqt orasida 80 yil o‘tgan. Nazar Eshonqul Kafkani o‘zbekchaga tarjima qilmagan, lekin Kafkani o‘zbek adabiyotida ro‘y berish (hodisa), shaklda, mazmunda, g‘oyada barpo etish yo‘sinida izlanishlar olib borgan. Ayni damda, mana shu idrok, ifoda mayllari Kafka tabiatini, ruhiyatini, orzu-umidlarini alohida bir fenomen tarzida bitish imkonini beradi. “Qal‘a” romanida xuddi Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanidagi kabi o‘xshash jihatlar mavjud. Masalan “Qal‘a” romanida “Frida” bobida qahramonning ham, voqealik

rivoji ham asta-sekin anglash mumkinligini dalolatlaydi: “Mexmonxona K. tunab kolgan karvon saroyga sirdan quyib qo‘ygandek o‘xshab ketardi. Ochig‘i, ajralib turadigan o‘ziga xos tashqi me‘moriy ko‘rinish borasida Qishloqda umuman hech narsa qilinmagan – mayda-chuyda o‘zgachaliklar esa bir zunda ko‘zga tashlanar – eshik ustiga esa chiroyli fonus ilingan edi. ichkariga kirganlarida, boshlari tepasida alimsoqdan qolgan, oxori uchib ketayozgan bir lahtak ham turar – bu graflikning muhri uilgan a‘lam edi. dahlizdayoq xo‘jayinga duch kelishdi, u binoni ko‘zdan kechirib yurgani ko‘rinib turardi: xo‘jayin hali karaxtlikdan qutulmagan uyquli, lekin hech narsani nazardan qochirmaydigan bit ko‘zlarini tikib, K.ga yaqindan razm solgach, nihoyat: “Janob tanobchiga faqat bufetga kirishga ruxsat etiladi”, dedi.

Frans Kafka o‘z qahramoni K. ning tabiatiga singib ketgan to‘g‘riso‘zlikni hato karvonsaroy xo‘jayniga ham bildirib o‘tishlikni lozim topganligida yorqin namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, imkon qadar bu jarayonda ikki jihatni aniqlab olish zarur. Chuonchi inson idrokida, xayolotida mavhumotdan – aniqlikka, hali biz romandagi g‘oyaning nima haqida borishini chamalashga imkon beradi. Sababki, K.ning jahli tez, kinoyaviy nutqida olomonlarcha amaldorlar ustidan mazaxlash muhimligi sezilib turadi. U bo‘yniga ilingan qismatini yashab bo‘layozdi. Roman ropa-rosa Kafka o‘lim bilan, sil kasalligi bilan olishayotgan paytga 1921–1922-yillarga to‘g‘ri keladi. Kafka roman tugallay olmaydi. U o‘zini betobligidan va yupun, o‘zgaridek shohona yashashdan bo‘yin tovlaydi. Hayotida ikki qizga unashtiriladi. Biroq birortasiga uylanmay – yolg‘iz bu olamni tark etadi. Kafkadagi jur‘at, yana bir jhati o‘z do‘sti Max Brodga: *“Mening qo‘lyozmalarimni, barcha asarlarimni yoqib yubor, men uni yaratilgan lahzalarinigana sevaman, qadrlayman!”* degan vasiyati ham mavjud. Shunday bo‘lsa-da, Max Brod unday qilmaydi. Do‘stini vasiyatiga qarshi – hamma asarlarini to‘plab, Kafkashunoslikning ilk bosqichiga asos soladi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda, Frans Kafka badiiy olamida ramzlar silsilasi uch o‘lchamli olam negizida kamol topadi. Kechadan bugunni, bugundan ertani qidirib, yovuzlikka qarshi chiqqan yozuvchi izlanishida XX asr vayronagarchiligining sabablariga kirib borishga yetaklaydi. Urush va odam, zulm hamda zalolat, aqlbovar qilmas musibatlarga dosh berishi mumkin bo‘lgan bani bashariyat taqdiriga metaforik yondashuvni his etamiz. Shuningdek, Kafkalarining balandlikka chiqqan ifodasida hamisha inson taqdiri tahlikali bir ovozda kelajakka shivirlab qo‘yayotganini ham his etasan, kishi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Вафо Файзуллоҳ. Сўнги роман... – Toshkent: Muxarip, 2023.
2. Франц Кафка. Қалъа. Роман. Рус тилидан Вафо Файзуллоҳ таржимаси. – Toshkent: Muxarip, 2023.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2006.
4. Тожибоев М. Поэтик герменевтика ва бадий тил. – Тошкент, 2021.
5. Жаббор Эшонқул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши, Насаф. 1999.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqul-navoiy-ijodida-dunyo-timsoli-va-talqinlari.html>